



ANTONIMIYA: LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATNING NAZARIY ASOSLARI VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI

A.A.Hasanov

Qo'qonDU dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada antonimiyaning nazariy asoslari, tasnifi, turlari, funktsiyalari va kognitiv yondashuvlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tayanch tushunchalar: qarama-qarshilik, antonimlar, kontseptual modellar, gradual antonimlar, freym, kontsept.

Antonimiya tilshunoslikdagi muhim semantik munosabatlardan biri hisoblanadi. U ma'nolar o'rtasidagi qarama-qarshilikni anglatib, inson tafakkuri, fikrlash tizimi va nutq tuzilishining o'zagini tashkil etadi. Antonimlar faqat leksik jihatdan emas, balki uslubiy va kognitiv jihatdan ham tilda muhim vazifalarni bajaradi. Ular so'zlar o'rtasidagi semantik inversiyani ifodalaydi va ma'lumotni ta'sirli yetkazishda vosita bo'ladi. Shuningdek, uning inson ongidagi kontseptual modellar bilan bog'liqligi ochib beriladi.

Antonimiya – ma'nolari o'zaro zid bo'lgan so'zlar o'rtasidagi leksik-semantik munosabat bo'lib, u tilda qarama-qarshilikni ifoda etish vositasidir (Smirnitский, 1956)¹. Antonimiya grammatik emas, balki leksik xarakterga ega bo'lib, so'zlar ma'nosining zidligi orqali inson tafakkurida dunyoni tushunish modellarini shakllantiradi.

Antonimiya tushunchasi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida umumiy tilshunoslik doirasida tildagi qarama-qarshiliklar xususidagi kuzatishlar orqali rivojlana boshlagan. A.A. Potebnya va F. Fortunatovning ishlarida qarama-qarshiliklar masalasi ko'tarilgan bo'lsa-da, antonimiya mustaqil semantik toifa sifatida XX asrning o'rtalarida shakllangan. A.I. Smirnitский uni maxsus leksik munosabat sifatida tasniflab, nazariy asoslarini belgilab berdi.

Antonimlar turlicha tasniflanadi. Eng keng tarqalgan klassifikatsiya A.I.Smirnitскийga tegishli bo'lib, u antonimlarni uch toifaga ajratadi: gradual, komplementar va vektorli antonimlar (Smirnitский, 1956)¹. Gradual antonimlar



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th June, 2025

o'rtasida semantik shkalalash mavjud: "issiq — sovuq", "uzun — qisqa". Ular o'zaro nisbiy darajalarda qarama-qarshidir. Komplementar juftliklar esa mutlaq zidlikni ifoda etadi: "tirik — o'lik", "bo'ydoq — uylangan". Bunda birining mavjudligi ikkinchisining yo'qligini bildiradi. Vektorli antonimlar harakat yo'nalishiga bog'liq: "kelmoq — ketmoq", "chiqmoq — kirmoq". Ular muayyan nuqtadan qaralgan harakat qarama-qarshiligini anglatadi. Bundan tashqari, kontekstual antonimlar ham mavjud bo'lib, ular ma'no qarama-qarshiligini faqat nutqdagi alohida kontekstda namoyon etadi.

Antonimlar leksik tizimda muqobil ma'nolarni belgilash bilan birga, uslubiy va kommunikativ vazifalarni ham bajaradi. Badiiy va publitsistik matnlarda antonimlar ta'sirchanlikni kuchaytirish, nazarni tortuvchi zidlikni ko'rsatish maqsadida faol qo'llaniladi (Arutyunova, 1976)². Jumladan, she'riyatda antonimlar orqali parallelizm, antiteza va paradoks kabi uslubiy figuralar yaratiladi. Antonimlar orqali fikrni rang-barang va qiyosiy ravishda ifoda etish mumkin: "yuksalish — qulash", "hayot — o'lim", "ishonch — shubha". Uslubiy nuqtai nazardan antonimiya so'z boyligini ko'rsatish, bir vaqtning o'zida zid mafkuralarni taqdim etish uchun muhim vositadir.

Kognitiv lingvistikada antonimlar dunyo haqidagi bilimlarni tashkillashtirish vositasi sifatida qaraladi. Inson ongida dunyo binar qarama-qarshiliklar asosida modellashadi: kun — tun, yaxshi — yomon, hayot — o'lim. Bu qarama-qarshiliklar universal kognitiv konstruktsiyalardir (Lakoff, 2004)⁵. Antonimlar kognitiv sxemalar, freymilar va kontseptlar tarkibida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ular orqali inson ma'lumotni taqsimlaydi va saqlaydi. Lakoff va Jonsonning metaforalar nazariyasida antonimlar fe'llar va sifatlardan iborat qarama-qarshi tushunchalarni modellash uchun xizmat qiladi (Lakoff, Jonson, 2004)⁵. SHu bois, antonimiya faqat til emas, balki tafakkur, madaniyat va mental reprezentatsiyalarni o'rganish uchun ham muhim fe'ldandir.

Antonimiya til tizimida muhim leksik-semantik munosabat sifatida o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning nazariy asoslari va tasniflari, leksik va uslubiy xususiyatlari turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Antonimlarning kognitiv tabiati ularni inson tafakkuri va ma'no anglash jarayonlarining asosiy vositalaridan biri sifatida ko'rsatadi. Ushbu maqolada keltirilgan nazariy yondoshuvlar va manbalar antonimiyaning yanada



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th June, 2025

chuqurroq o'rganilishi uchun zamin yaratadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda antonimiyani kompyuter lingvistikasi, avtomatik matn tahlili va korpus lingvistikasida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Высшая школа, 1956. – 210 с.
2. Арутюнова Н.Д. Логика и лексика: Очерки по прагматике и семантике. – М.: Наука, 1976. – 349 с.
3. Введенская Л.А. Словарь антонимов русского языка. – М.: Русский язык, 1971. – 327 с.
4. Комиссаров В.Н. Лексикография и перевод. – М.: Международные отношения, 1990. – 286 с.
5. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М.: Прогресс, 2004. – 256 с.